$$V_{xak} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 14 \cdot 630}{1000} = 55,38 \text{ m / daq}$$

7.Kesish uchun sarflangan quvvat:

Agar $S=0,02 \text{ mm/ayl}$, $t=0,2 \text{ mm}$, $N_j=2,4 \text{ Kvt}$ ([5] 650 bet,7 jad)

To'g'rilash koefitsienti $k=0,75$

$$N=2,4 \cdot 0,75=2,15 \text{ Kvt}$$

8..Dastgoh yuritmasini quvvati yetarlimi yoki yo'qligini tekshiramiz:

Tokarlik yarim avtomat 1A730

$$N_{shp}=N_d \cdot h=10 \cdot 0,75=7.5 \text{ kvt};$$

$$N_{kes} \leq N_{shp}, 2,55 \leq 7.5, \text{ yani ishlov berish mumkin.}$$

9.Asosiy vaqtni hisoblaymiz.

$$T_a = \frac{L \cdot i}{n \cdot S}$$

Bu yerda $L=l+y+\Delta=28+2+2=32 \text{ mm}$

$$T_a = \frac{L \cdot i}{n \cdot S} = \frac{32}{630 \cdot 0,2} = 0.47 \text{ daq}$$

020, Vertikalal frezalash operatsiyasi

1 O'tish

A yuzada Dyuz $\varnothing 14 \text{ mm}$ $l=20 \text{ mm}$. Zagatovka materiali Po'lat 50 qattiqligi HB229. keskich va uning geometrik o'lchamlari:

freza kesuvchi qismi materiali T15K6, freza tishlar soni $z=4$; $D=14 \text{ mm}$ freza geometrik elementlari: $\gamma=15^\circ$ $\alpha=12^\circ$

Kesish maromini belgilaymiz. ([7] malumotnoma bo'yicha).

1.kesish chuqurligi

$$t=20 \text{ mm}$$

2.surish.

$S=0.02$ mm/ayl karta F2

3.freza turg'unligi.

$T=120$ daq. karta F3

4.kesish tezligi.

Agar po'lat 50 bo'lsa, HB 229 bolsa, T15K6 bo'lsa, barmoqli freza bo'lsa $d=16$ mm,

$V_j=23$ m/daq. karta F4

To'g'rilash koefitsenti $k=1$

$V=23 \cdot 1 = 23$ m/daq

5.shpindelni aylanishlar soni

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 23}{3.14 \cdot 14} = 457,80 \text{ daq}^{-1}$$

Dastgox posportidan $n=400$ ayl/daq qabul qilamiz.

6.xaqiqiy tezlik

$$V_{xak} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 14 \cdot 400}{1000} = 20,096 \text{ m / daq}$$

7. kesishdagi quvvatni hisoblaymiz

$$N = E \cdot \frac{V \cdot t \cdot z}{1000} \cdot k;$$

Bu yerda po'lat 50 . $d=16$ bo'lsa;

$E=1,5$ ([4]659 bet, 7jad)

$$N = 1,5 \cdot \frac{79,128 \cdot 0,87 \cdot 16}{1000} \cdot 1,3 = 2,14 \text{ kVt} - -$$

8.dastgoh quvvatini tekshiramiz.

Frezalash dastgoxi quvvati $N=7,5$ kVt; $FIK=0,8$

$$N_{sh}=7,5 \cdot 0,8 = 6 \text{ kVt}$$

9.tishlar bo'yicha surishni xisoblaymiz.

$$V_s = S \cdot z \cdot n = 0,02 \cdot 4 \cdot 400 = 32 \text{ mm/tish}$$

10.asosiy vaqt

$$T = \frac{L}{V_s} = \frac{20}{32} = 1.25 \text{ daq}$$

2o'tish

A yuzada T yuza $\varnothing 4$ mm $l=20$ mm. Zagatovka materiali Po'lat 50 qattiqligi HB229. keskich va uning geometrik o'lchamlari: Barmoqli freza

freza kesuvchi qismi materiali T15K6, freza tishlar soni $z=4$; $D=4$ mm freza geometrik elementlari: $\gamma=15^\circ$ $\alpha=12^\circ$

Kesish maromini belgilaymiz. ([7] malumotnoma bo'yicha).

1. kesish chuqurligi

$$t=2 \text{ mm}$$

2. surish.

$$S=0,02 \text{ mm/ayl} \quad \text{karta F2}$$

3. freza turg'unligi.

$$T=120 \text{ daq.} \quad \text{karta F3}$$

4. kesish tezligi.

Agar po'lat 50 bo'lsa, HB 229 bolsa, T15K6 bo'lsa, barmoqli freza bo'lsa $d=16$ mm, $V_j=23$ m/daq. karta F4

To'g'rilash koefitsenti $k=1$

$$V=23 \cdot 1 = 23 \text{ m/daq}$$

5. shpindelni aylanishlar soni

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 23}{3.14 \cdot 4} = 915,60 \text{ daq}^{-1}$$

Dastgox posportidan $n=800$ ayl/daq qabul qilamiz.

6. xaqiqiy tezlik

$$V_{xak} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 4 \cdot 800}{1000} = 20,096 \text{ m/daq}$$

7. kesishdagi quvvatni hisoblaymiz

$$N = E \cdot \frac{V \cdot t \cdot z}{1000} \cdot k;$$

Bu yerda po'lat 50 . $d=8$ bo'lsa;

$$E=1,5 \quad ([4]659 \text{ bet, 7jad})$$

$$N=1,5 \cdot \frac{79,128 \cdot 0,87 \cdot 4}{1000} \cdot 1,3 = 2,14 \text{ kVt} - -$$

8. dastgoh quvvatini tekshiramiz.

Frezalash dastgoxi quvvati $N=7,5$ kVt; $FIK=0,8$

$$N_{sh}=7,5 \cdot 0,8=6 \text{ kVt}$$

9. tishlar bo'yicha surishni xisoblaymiz.

$$V_s = S \cdot z \cdot n = 0,02 \cdot 4 \cdot 800 = 64 \text{ mm/tish}$$

10. asosiy vaqt

$$T = \frac{L}{V_s} = \frac{20}{64} = 0.625 \text{ daq}$$

3.8. Sarflangan texnik vaqt meyorini aniqlash.

Mashinasozlikda vaqtlarni texnik vaqt meyorini aniqlashda qisqa analitik usulda foydalaniladi. Mayda seriyali ishlab chiqarish sharoitida donabay kalkulyatsion vaqt.

$$T_d = t_{as} + t_{yor} + t_{dam} + t_{jx} + \frac{t_{ty}}{n}; \text{ daq}$$

Bu yerda

t_{as} - asosiy vaqt, daq

t_{yor} - yordamchi vaqt, daq

t_{dam} - dam olish vaqti, daq

t_{jx} - jixozlarga xizmat ko'rsatish vaqti, daq

T_{ty} - tayyorlash yakunlash vaqti, daq

n - partiyadagi detallar soni, dona

$$t_{yor} = t_{do} + t_m + t_{ol} + t_{db};$$

bu yerda

– detalni olish va qo'yish uchun sarflangan vaqt,

- detalni maxkamlash uchun sarflangan vaqt,

- detalni o'lchash uchun sarflangan vaqt,

- dastgohni boshqarish uchun sarflangan vaqt;

$$T_{op} = t_{as} + t_{yor}; \text{ daq}$$

Ishchilarni dam olish vaqti operativ vaqtdan x0,05 olinadi;

Jixozlarga xizmat ko'rsatish vaqti operativ vaqtni x0,06 olinadi;

$$N=40000 \text{ dona} \quad T_{ty}=2400 \text{ daq}$$

3.4-jadval

N:	Operatsiyalar	Asosiy vaqt daq	Yordamchi vaqt, daq	Jixozlarga Xizmat ko'rsatish vaqti, daq	Dam Olish Vaqti daq	Tayyorlash va Yakunlash vaqti	Donab ay vaqt daq
1	005	1.49	1.12	0.15	0.13	0.05	2.94
2	010	0.389	0.86	0.074	0.06	0.05	1.433
3	015	0.788	0.98	0.11	0.08	0.05	2.058
5	025	1.875	1.45	0.18	0.15	0.05	3.705
	jami						10.136

4.KONSTRUKTORLIK QISM.

4.1. Dastgoh moslamasini loyixalash va xisoblash.

Moslamani loyixalashda, dastgoxni ishchi qismi va moslama maxkamlanadigan elementlarini o'lchamlari aniqlanadi; ishlov beriladigan detalni bazalash nazariy sxemasidan; bazalarni yuzalarni aniqlik va tozaliklaridan kelib chiqib, o'rnatuvchi elementlarni turi va o'lchamlarni, ularni soni va o'zaro joylashishlari aniqlanadi, bazalash xatoliklari topilib berigan ish unumdorligini hisobga olinib moslama turi aniqlanadi.

Qisish kuchini ta'sir etish nuqtasi va yo'nalishi qabul qilinib konstruktiv parametrlari o'lchamlari va kuchni berish manbai aniqlanadi, moslamada zagotovkani o'rnatish va maxkamlash xatoliklari aniqlanadi. Umuman olganda moslamalarni qo'llanishi nafaqat yuqoridan yaxshi tomonlarga ega, balki texnologik jarayonni bajarish yordamchi vaqtni keskin kamaytiradi va ishlab chiqarishni texnologik tayorlash vaqtini kamayishiga olib keladi. Moslamani loyihalashda dastgoxni ishchi qismi va moslama mahkamlanadigan elementlarni o'lchamlari aniqlanadi: ishlov berilayotgan idetalni bazalash nazariy sxemasidan; baza yuzalasi aniqligi va tozaliklaridan kelib chiqib, o'rnatuvchi elementlarini turi va o'lchamlarini, ularni soni va o'zaro joylashishlari aniqlanadi. Bazalash xatoliklari topilib berilgan ish unumdorligini hisobga olinib moslama turi aniqlanadi. Qisish kuchi ta'sir etish nuqtasi va yo'naltirish qabul qilinib konstruktivparametrlari o'lchamlari va kuchni berish manbai aniqlanadi, moslamada zagotovkani o'rnatish va maxkamlash xatoliklari aniqlanadi.

$$D = \sqrt{\frac{Q}{0,785 \cdot \rho \cdot \eta} + d^2} = \sqrt{\frac{1575}{0,785 \cdot 5 \cdot 0,85} + 625} = 12,1 \text{ sm.}$$

Bu yerda :

$\rho = 5$ havo bosimi; $\eta = 0,85$ -F.I.K.

$D = 25$ mm. shtok diametri .

Demak, pnevmosilindr diametrini $D = 150$ mm qabul qilamiz.

4.2 Kesish asbobini loyihalash va xisoblash.

Detalimiz materiali Po'lat 50 ,qattiqligi HB 229 bo'lganligi uchun unga mexanik ishlov berishda qattiq qotishmali tokorlik keskichini loyixalaymiz. Zagatovka diametri $d = 64$ mm, islov berishda qoldirilgan qo'yim bir tamoni uchun $h = 3$ mm, surish $s = 0,6$ mm/ayl, keskichni chiqishi $l = 60$ mm.

1. keskich O'qsi materialini sifatiga ko'ra uglerodli Po'lat 50 qattiqligi $\dot{G}_b = 650$ MPa, ruxsat etilgan egilishga chidamliligi $\dot{G}_u = 200$ MPa.

2. kesishdagi asosiy tasir etayotgan kuch

$$P_z = 9.81 \cdot 92 \cdot 2 \cdot 0.025^{0.75} \cdot 4.9 \cdot 1 = 2959.8 \text{ N (298,8 kgs)}$$

To'g'rilash koefitsienti $k = 1$

3. Keskich O'qsi to'rtburchak eni kesimi quyidagi shartga asosan:

$$h = 1,6 \cdot b$$

$$b = \sqrt[3]{\frac{6 \cdot P \cdot L}{2,56 \cdot \theta}} = \sqrt[3]{\frac{6 \cdot 298 \cdot 60}{2,56 \cdot 20}} = 14,3 \text{ mm}$$

yoki SI sistemasida $b = 14,3$ mm

O'q o'lchamiga yaqinlashtiramiz. ($b = 16$ mm)

$$h = 1,6 \cdot 16 = 25,6 \text{ mm } h = 25 \text{ mm qabul qilamiz.}$$

4. Keskich O'qsi qattiqlikka va chidamiylikka xisoblaymiz.

Maksimal yuklanish: keskichni ruxsat etilgan chidamliligi:

$$P = \frac{b \cdot h^2 \cdot \theta}{6 \cdot l} = \frac{16 \cdot 25^2 \cdot 20}{6 \cdot 60} = 555 \text{ kgs}$$

Maksimal yuklanish: keskichni ruxsat etilgan qattiqligi

$$P = \frac{3 \cdot f \cdot E \cdot J}{L^3} = \frac{3 \cdot 0,1 \cdot 20000 \cdot 20800}{60^3} = 577 \text{ kgs}$$

Bu yerda: $f=0,1$ -qora yo'nishdagi strela ruxsat etilgan qochishi,

$E=20000 \text{ kgs/mm}^2$ -keskich O'qsi materiali qarshiligi moduli,

$L=60 \text{ mm}$ -keskich chiqishi; J - inertsiya mamentti.

$$J = \frac{bh^3}{12} = \frac{16 \cdot 25^3}{12} = 20800 \text{ mm}^4$$

Keskich chidamiylikka va qattiqlikka etarlicha bardosh beradi.

$$(P_{chidamiylik} > P_z < P_{qat})$$

5. Keskichni konstruktorlik elementlarini ST SEV 190-75 ga asosan qabul qilamiz.
 $L=140 \text{ mm}$; $n=6 \text{ mm}$; $r=0,4 \text{ mm}$; $l=16 \text{ mm}$; forma N÷0239A GOST 2209-82 ga asosan.

6. Geometrik elementlari ([18] karta, 188 bet) qabul qilamiz.

7. GOST 5688-61 ga asosan yuza tozaliklari,oldingi va ketingi keskich lezviyasi yuzalari , keltirilgan o'lchamdan chetga chiqishlar; O'q materiali va qattiq qotishma markasi qo'yamiz.

4,3 Nazorat moslamasi loyixalash va xisoblash.

Bizga berilgan detalimiz o'z o'qi atrofida aylanuvchi detallar sinfiga kirganligi va detalni asosiy yuzasi silindr bo'lganligi sababli detalimizni indikatorlar yordamida nazoratdan o'tkazamiz. Detalimizni markaziy teshiklari orqali moslama markaziga o'rnatamiz.U holda nazorat moslamasini xatoligi hisobiy kattaligi quyidagicha bo'ladi.

$$\Delta_{moslama} = \Delta_1^2 + \Delta_2^2 + \sqrt{\Delta_3^2 + \Delta_4^2 + \Delta_5^2 + \Delta_6^2}$$

Bu yerda $\Delta_1=0,005 \text{ mm}$ –moslama o'rnatish uzellarini tayyorlashda chiziqli o'lcham bo'yicha xatolik;

$\Delta_2=0$ uzatish qurilmalarining sistematik xatoligi;

$\Delta_3=0$ o'rnatish xatoligi;

$\Delta_4=0$ tekshirilayotgan detal o'lchov bazasini o'rnatish uzal ishchi yuzasi bilan mos tushgandagi noaniqlik

$\Delta_5 = 0,005$ mm tasodifiy xatolik,

$\Delta_6 = 0,001$ mm qollanilayotgan o'lchash uslubiy xatolik.

Bulardan kelib chiqadiki moslama xatoligi

$$\Delta_{moslama} = 0,005_1^2 + 0^2 + \sqrt{0}^2 + 0,01^2 + 0^2 + 0,001^2 = 0,057 \text{ mm}$$

Nazorat qilinayotgandagi xatolikning hisobiy qiymati quyidagi talabni qanoatlantirishi kerak.

$$\Delta_{pr} \ll \Delta_{moslama} \ll T_k$$

$T_k = 0,08$ mm -bu yerda nazorat qilinayotgan ruxsat etilayotgan chetlanish maydoni

5.TASHKILIY BO'LIM

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asarlarida takidlagandek respublika iqtisodiyoti real sektori sohasida joxon moliya-iqtisodiy krizisining salbiy oqibatlarini bartaraf etishning hal qiluvchi ommillari: bazaviy tarmoqlarda moderinizatsiya, texnik va texnologik qayta jixozlash jarayonlarini faollashtirish, sifatli, eksportga yo'naltirilgan raqobatbardosh maxsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy moslanuvchan mini texnologiyalarni tadbiq etish; ichki va tashqi bozorlarda mamlakatimiz ichlabchiqaruvchilari maxsulotlariing raqobatbardoshligini yanada oshirish ,eksport qiluvchi korhonalardan tomonidan yangi tovarlar turlarini sotish hajmlarini kengaytirish hamda mahsulot sotishning istiqbolli bozorlarini o'zlashtirish; iqtisod qilishning qattiq tartibini joriy etish, jumladan, texnologik jarayonlarni ratsionalizatsiyalash, ishlab chiqarishda materiallar, elektr va energiya sarfini hamda boshqa sarf-harajatlarini kamaytirish hisobiga ishlab chiqarish harajatlarini va mahsulot tannarhini keskin kamaytirish texnik va ishlab chiqarish intizomiga rioya qilish, mahsulot sifatini boshqarishning halqoro standartlarini tadbiq etish; moslanuvchan narh-navo siyosatini amalga oshirish, Jahon bozorlarida narh -navo konyukturasi tez o'zgarib borayotgan sharoitda eksport mehanizmlarini takomillashtirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Malisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 27-yanvar kuni bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi,, mamlakatni moderinizatsiya qilish va kuchli fuqolik jamiyatini barpo etish ustuvor maqsadimiz" hamda Vazirlar Mahkamisining 2010-yil 29-yanvar kuni bo'lib o'tgan majlisidagi „Asosiy vazifamiz Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" mavzularida belgilangan vazifalaridan kelib chiqib iqtisodiyotimiz yaqin yillar ichida yanada barqaror,o'ziga baquvvat, jaxon va mintaqaviy bozorlarda raqobatdosh bo'lmog'iuchun iqtisodiyotimizni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish bo'yicha haliko'b ish qilish lozimligini,bu o'rinda,mamlakatimiz va mintaqamizdagi

mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda, gazni qayta ishlash, neft-kimyo, kimyo sanoati, energetika, avtomobilsozlik elektrotexnika sanoati, mashinasozlik, farmatsevtika kabi zamonaviy sohalar va ishlab chiqarish tarmoqlarini va albatta, axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya tizimlarini jadal rivojlantirishga aloxida ahamiyat berish, yaqin kelajakda raqamli va keng formatli televideniyasiga o'tish zarur.

5.1. O'q detaliga ishlov berish mexanik bo'limini tashkil qilish.

Loyihalanayotgan bo'lim O'q detaliga ishlov berish uchun mo'ljallangan bo'lib, 2 smenali ish tartibi bo'yicha faoliyat ko'rsatadi. 2 smenali ish tartibida dastgohlarning ishlash fondi $F_D = 4029$ soat, yil davomida ish kunlari soni esa 253 kunga teng. Ishlab chiqarish unumdorligi, uning texnikaviy o'sishi va maxsulot sifatini oshirish kabi tadbirlar tashkiliy ishlarning eng qulay usullari va texnik iqtisodiy taxlilining keng ko'lamda qo'llanilishi asosida amalga oshiriladi.

2.3. Bo'limdagi hisoblarga ko'ra bizning loyihamizda ko'rilayotgan bo'lim o'rta seriyali ishlab chiqarish turiga taaluqli bo'lib, yillik ishlab chiqarish hajmi $N = 40000$ dona, detal vazni $m = 1.42$ kg.

5.2. Dastgox miqdorini aniqlash, o'rta seriyali ishlab chiqarish sharoitida dastgixlar soni quyidagi formula orqali hisoblanadi;

$$C_x = \frac{t_{dk} N}{\Phi 60 K_{KC}};$$

Bu yerda; K_{KC} - qayta sozlash koefitsienti; $K_{KC} = 0,95$

$\Phi = 4029$ soat 2 smenali ish uchun ;

Hisoblar asosida olingan dastgohlar soni eng yaqin butun songa keltirilib qabul qilingan dastgohlar soni C_K aniqlanadi t_{dk} - bu yerda har bir operatsiya uchun detailning kalkulyatsion vaqti;

$$1. C_x = \frac{t_{dk} N}{\Phi 60 K_{KC}} = \frac{2,94 \cdot 40000}{4029 \cdot 60 \cdot 0,99} = 0,47$$

$C_K = 1$ qabul

qilamiz

$$2.C_x = \frac{t_{dk} N}{\Phi 60 K_{KC}} = \frac{1,433 \cdot 40000}{4029 \cdot 60 \cdot 0,99} = 0,23 \quad C_K = 1 \quad \text{qabul}$$

qilamiz

$$3.C_x = \frac{t_{dk} N}{\Phi 60 K_{KC}} = \frac{1,11 \cdot 40000}{4029 \cdot 60 \cdot 0,99} = 0,17 \quad C_K = 1 \quad \text{qabul}$$

qilamiz

$$4.C_x = \frac{t_{dk} N}{\Phi 60 K_{KC}} = \frac{3,705 \cdot 40000}{4029 \cdot 60 \cdot 0,99} = 0,59 \quad C_K = 1 \quad \text{qabul}$$

qilamiz

$$5.C_x = \frac{t_{dk} N}{\Phi 60 K_{KC}} = \frac{2,058 \cdot 40000}{4029 \cdot 60 \cdot 0,99} = 0,32 \quad C_K = 1 \quad \text{qabul}$$

qilamiz

Bu yerda C_K -qabul qilingan dastgoxlar soni

Har bir operatsiyada dastgoxlarning yuklanish koefitsentini quyidagi formula bilan topamiz;

$$K_{IO} = \frac{C_x}{C_K} = \frac{0,47}{1} = 0,47$$

$$K_{IO} = \frac{C_x}{C_K} = \frac{0,23}{1} = 0,23$$

$$K_{IO} = \frac{C_x}{C_K} = \frac{0,17}{1} = 0,17$$

$$K_{IO} = \frac{C_x}{C_K} = \frac{0,59}{1} = 0,59$$

$$K_{IO} = \frac{C_x}{C_K} = \frac{0,32}{1} = 0,32$$

Asosiy vaqt bo'yicha dastgoxlardan foydalanish koefitsenti quyidagi formula orqali hisoblanadi.

$$K_c = \frac{t_{as}}{t_d} = \frac{1,49}{2,94} = 0,50$$

$$K_c = \frac{t_{as}}{t_d} = \frac{0,389}{1,433} = 0,27$$

$$K_c = \frac{t_{as}}{t_d} = \frac{0,788}{2,058} = 0,38$$

$$K_c = \frac{t_{as}}{t_d} = \frac{2,9}{1,11} = 2.61$$

$$K_c = \frac{t_{as}}{t_d} = \frac{1,875}{3,705} = 0,51$$

Dastgoxlar qaydnomasi

5.1 jadval

N:	Dastgox nomi operatsiyalar bo'yicha	Dastgohlar soni		Dvigatel quvvati kvt	Yuklanish koefitsenti	Asosiy vaqt bo'yicha foydalanish koefitsenti
		xisobiy	Qabul qilingan			
1	Frezalash	0.47	1	11	0.47	0.5
2	Tokorlik	0.23	1	7,5	0.23	0.27
3	Tokorlik	0.17	1	4,5	0.17	0.38
4	Frezalash	0.32	1	4,5	0.32	0.51

5.3.Ishchi va xizmatchilar soni

Mayda seriyali ishlab chiqarish sharoitida korxonalarda asosiy ishchilar soni qabul qilingan dastgoxlar soniga qarab xisoblanadi.

$$r_{dast} = 5 \text{ kishix} 2 \text{ smena} = 10 \text{ kishi.}$$

Asosiy ishchilarning ro'yhati soni, qatnashuvchi ishchilar sonidan 12-15% oshadi,yani

$$R_{as.ish} = 10 \times 0,15 = 1,5 \text{ kishi. } R_{as.ish} = 2 \text{ qabul qilamiz.}$$

$$2_{ishchi} + 12 = 14 \text{ kishi.}$$

O'rta seriyali ishlab chiqarish sharoitida chilangarlar soni asosiy ishchilar sonining 1-3% teng deb olinadi, yani

$$r_{chil} = 14 \times 0,03 = 0,42 \text{ qabul qilamiz} \quad 1 \text{ kishi}$$

Ishlab chiqarish qatnashuvchi ishchilarninig umumiy miqdori

$$R_{um} = 14 + 1 = 15 \text{ kishi}$$

Yordamchi ishchilar soni esa asosiy ishchilar umumiy miqdorining 30-40% ni hisobida olinadi.

$$r_{yor} = 15 \times 0.3 = 4.5 \text{ qabul qilamiz} \quad 5 \text{ kishi}$$

Jami ishchilar soni

$$r_{ish} = 20 \text{ kishi}$$

Muxandis texnik hodimlar asosiy ishchilar sonidan 12-15% hisobida olinadi.

$$MTH = 20 \times 0.15 = 3 \text{ kishi} \quad \text{qabul qilamiz} \quad 3 \text{ kishi}$$

Ombor va idora hodimlari asosiy ishchilar sonidan 5-6% hisobida olinadi.

$$OIH = 20 \times 0.05 = 1 \text{ kishi} \quad \text{qabul qilamiz} \quad 1 \text{ kishi}$$

Kichik xizmat ko'rsatuvchi hodimlar asosiy ishchilar sonidan 1,5-2% hisobida olinadi



$$KXKH = 20 \times 0.02 = 0.4 \text{ qabul qilamiz} \quad 1 \text{ kishi}$$

5.4. Bo'lim maydonini hisoblaymiz

Bo'limning asosiy maydoni dastgoxlar kategoriyasi va gabarit o'lchamlarga asoslanib aniqlanadi. Bizning maydonimizda hisobimiz bo'yicha 5 ta dastgox joylashtirildi. Bulardan katta dastgoxlar $2 \times 30 = 60 \text{ m}^2$ va kichik dastgoxlar $3 \times 20 = 60 \text{ m}^2$. Jami $Q_{on} = 120 \text{ m}^2$ tashkil qiladi. Yordamchi honalar maydoni asosiy maydon hisobidan 25-30% hisobida ajratiladi. $Q_{yor} = 120 \times 0.25 = 30 \text{ m}^2$. Tashhqi maydon ishchi maydonning 10%ga teng deb olinadi: $Q_{tash} = 12 \text{ m}^2$.

Maishiy xizmat ko'rsatish uchun maydon asosiy maydonning 20-30%ga teng: $Q_m = 120 \times 0.22 = 26.4 \text{ m}^2$.

$$\text{Bo'limning umumiy maydoni } Q_{um} = 120 + 30 + 12 + 26.4 = 188.4 \text{ m}^2$$



6.IQTISODIY BO'LIM

Sex bo'limlarida texnologik jarayonlarni loyihalashda uning samaradorligini aniqlaydigan asosiy ko'rsatkich bu ishlab chiqarilgan maxsulot tannarxi hisoblanadi. Texnologik jarayonlarni qandaydir operatsiyasi uchun qo'shimcha nostandart qurilma, moslama mexanizm qo'llangan xolda operatsiyani texnologik tannarxini aniqlash uchun, keltirilgan sarf-xarajatlarni aniqlash talab etiladi. Buning uchun quyidagi boshlang'ich ma'lumotlarni bilish kerak bo'ladi.

1. Yillik ishlab chiqarish dasturi; $N=40000$ dona

2. Bajarilgan operatsiya uchun sarflangan mehnat xajmi (donabay yoki dona-kalkulyasiya vaqti),

$$t_{dk} = 2.9 \text{ daq}$$

3. Ishlatilayotgan dastgoh modeli; Vertikal parmalsh dastgohi 2H125

4. Preskurant bo'yicha bahosi; $K_{pr}=1230000$ so'm

5. Yuklanish koefitsienti; $K_{yu}=0,59$

6. Asosiy vaqt bo'yicha foydalanish koefitsienti; $K_a=2.61$

7. Berilgan operatsiya uchun ishchi toifasi; 3

8. Aniqlangan toifa uchun soatlik tarif stavkasi; $Ci=1220$ so'm/soat

Berilgan texnologik operatsiyani bajarish uchun sarflangan keltirilgan sarf-xarajatlar quyidagi formula bilan aniqlanadi;

$$\text{Moslama; } 3_1 = C_1 + E_H K_C = 22.19 + 0,15 \cdot 17,5 = 24.815 \text{ so'm}$$

$$\text{Moslamasiz; } 3_2 = C_2 + E_H K_C = 22.1 + 0,15 \cdot 17,5 = 24.725 \text{ so'm}$$

Bu yerda; 3-detal operatsiya uchun sarflangan keltirilgan sarf-xarajatlar. So'm

C- Berilgan operatsiya texnologik tannarxi so'm;

E_H -Kapital qo'yimlarni, normativ samadorlik koefitsienti $E_H=0,15$

K_C -Bitta detal operatsiyaga to'g'ri keladigan solishturma kapital qo'yimlar, so'm

Quyidagi formuladan aniqlanadi

$$K_C = K/N = 175890 / 40000 = 17,5 \text{ so'm}$$

Bunda K-berilgan variantga sarflangan kapital qo'yimlar, so'm

Yillik ishlab chiqarish dasturi; $N = 400000$ dona

Kapital qo'yimlarga asosan, dastgohlar uchun sarf-xarajatlar kiradi.

Taxminiy hisoblarda ishlab chiqarish maydonlari uchun sarf-xarajatlar nisbatan ozligi uchun hisobga olinmaydi. Dastgohni tashish va montaj qilish sarf-xarajatlari uchun uning qiymatidan 10% miqdorda olinadi. O'rta seriyali ishlab chiqarish sharoitida xar bir dastgoxda bir necha har-hil operatsiyalarni bajarilishi mumkin. Shu sababli detal operatsiya uchun kapital qo'yimlarni aniqlashda dastgohni berilgan operatsiya bilan bandlik koefitsienti ni aniqlash kerak bo'ladi. Bu koefitsient dastgohni shu operatsiya bilan yuklanish koefitsienti K_{yu} ga bog'liq. Agar $\mu = 0.85 \dots 1$ bo'lsa, koefitsienti $K_{yu} < 0.85$ bo'ladi, agar $K_{yu} = 0.85$ bo'lsa, dastgox boshqa detallar bilan qo'shimcha yuklanadi va μ ni quyidagicha aniqlanadi:

$$\mu = K_{yu} / K_n = 0,12 / 0,8 = 0,15$$

Bunda K_n -normativ yuklanish koefitsienti; $K_n = 0.8$

Dastgohni pereskurant bo'yicha bahosini K_{np} deb belgilab, uni tashish va montaj qilish uchun sarf harajatlarni 10% miqdorida aniqlangan xolda, berilgan detal operatsiya uchun kapital qo'yimlarni quyidagicha aniqlanadi.

$$K = 1,1 \mu K_{np} = 1,1 \cdot 0,15 \cdot 1230000 = 202950 \text{ so'm.}$$

Operatsiyani texnologik tannarxi C quyidagi formula orqali hisoblanadi

$$C = (t_d / 60)(C_p + H_c) = (2.9 / 60)(2196 + 14,17) = 22.1 \text{ so'm}$$

Bunda t_d - dona-kalkulyasiya vaqti. Min

C_p -dastgoh ishchisini bir soat ish vaqti ucun to'lanadigan ish xaqi, so'm

H_c -dastgoxni bir soat ishi uchun sarflanadigan sarfi, so'm

Dastgoh ishchisini ish xaqi quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$C_p = 1.8 C_{CH} = 1,8 \cdot 1220 = 2196 \text{ so'm}$$

Bunda, C_{CH} -berilgan toifadagi ishchini soatli tarif stafkasi, so'm (4 jadval)

1,8-qo'shimcha to'lovlar va sotsial sug'urtani hisobga oluvchi koefitsent (40%, mukofatlar, 40% sotsial sug'urtaga ajratmalar).

Dastgoxni bir soat ishiga to'g'ri keladigan sarf-xarajatlar quyidagi empirik fo'rmuladan aniqlanadi;

$$H_C = h \cdot 10^{-3} \cdot K^{0,75} = 1,65 \cdot 0,001 \cdot 175890^{0,75} = 14,17 \text{ so'm}$$

Bunda; h-ishlab chiqarishni xarakterini va dastgoh ekspluatatsiyasi xarajatlarini hisobga oluvchi koeffitsienti; K- berilgan dastgoxga sarflangan kapital qo'yimlari,so'm.

Seriyalab ishlab-chiqarishda dastgox va moslama ekspluatatsion xarajatlarni hisobga olganda $h=1,65$;

Agar hisoblarda moslamani ekspluatatsiyasi uchun sarflangan xarajatlar hisobiga olinmasa $a=1,22$.

Dastgox qo'shimcha qurilmalar,maxsus jixoz yoki moslamalar bilan jixozlangan variantni texnologik tannarxi hisoblanganda,ushbu moslama yoki qurilmani 1 soat ishiga to'g'ri keladigan sarf-xarajatlar hisobiga olinadi, u quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_{pr} = 0,18 \cdot 10^{-3} C_{pr} = 0,18 \cdot 0,001 \cdot 55000 = 9,9 \text{ so'm}$$

Bunda C_{pr} -qurilma yoki moslamani tayyorlash uchun sarflangan xarajatlar,so'm(6-jadval).

U holda operatsiyani texnologik tannarx quyidagicha aniqlanadi;

$$C = t_d / 60 (C_p + H_C + H_{pr}) = (0.2.9/60)(2196+14,17+9,9) = 22.19 \text{ so'm}$$

Qoplash muddati;

$$Eg = ((3_1 - 3_2) / N) \cdot 100 = ((24.815 - 24.725) / 40000) \cdot 100 = 0,0002 \text{ yil qoplaydi.}$$

6.1.jadval

Ishlash variantlarini iqtisodiy asoslash.

Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar nomi	Belgilanishi	O'lchov birligi	Natija	
			Jixozsiz	Jixoz bilan birga
I.Boshlang'ich ma'lumotlar				
1.1. Donaviy (dona kalkulyatsiya) vaqti	t_d	daq	2.9	2.9
1.2. Ishning toifasi (razryadi)			4	3
1.3.Dastgox ishchisi ish	C	So'm		

haqi,so'm/soat	<i>I</i>	soat	1440	1220
1.4.Dastgox yuklanish koefitsienti	K <i>y</i>			0,59
1.5. Dastgox bandlik koefitsienti				2.61
1.6.Kapital qo'yimlar miqdori	K	So'm		202950
1.7.Nostandart jixoz (moslama) ga qo'shimcha sarf xarajatlar	C <i>pr</i>	So'm		55000
II.Texnologik tannarxhisobi		So'm		
2.1.Dastgox ishi uchun sarfxarajatlar	H <i>c</i>	So'm		14,17
2.2.Nostandart jixozni ishi sarf-xarajat	H <i>pr</i>	So'm		9,9
2.3. Operatsiya uchun texnologik tannarhi	C	So'm	22.11	22.19
Solishtirma kapital qo'yimlar	K	So'm/ dona	17.5	17,5
2.5 Keltirilgan sarf harajatlar	3	So'm	24.725	24.815

7.MEXNATNI MUHOFAZA QILISH BO'LIMI.

Loyihalanayotgan ishchi joyini mehnat sharoitlarining tarifi va tahlili texnologik jarayonning qisqa tarifi va ishchilar mehnat tarifi.

Detalga ishlov berish jarayoni GOST 123-002-85 bo'yicha ishchilar mehnatini havfsizlik sharoitlarini inobatga olgan holda tuzilgan texnologik jarayon metal qirqish dastgohlaridan iborat bo'lgan ishlab chiqarish tizimidir.

Dastgohlarda moslanib va kesuvchi asboblardan taminlangan. Bu dastgohlar universal va yarim avtomatlardir. Jarayonda detal bitta dastgohdan ikkinchi dastgohga qo'l yoki mahsus qurilma uzatib berilishi mumkin. Bo'limda mavjud bo'lgan xavfli moddalar CHиП-93 normativlari bilan meyorlangan. Ishchi joylarini yaxshilash uchun bo'limda issiq suv, ichimlik suvi dam olish joylari ko'zda tutilgan.

Ishlov berish vaqti ajralib chiqqan chiqindilar yer ostidan konveyer yordamida tashqariga olib tashlanadi.

Yong'inni oldini olish uchun signalizatsiya, yong'in shiti yong'in gidranti mavjud. Sex bir etajli binoda joylashgan bo'lib, svetotekhnika fanarlar, ventilyatsiya va tabiiy yorug'lik bilan taminlangan. Havfli zonalarining hammasini atrofi o'ralgan. Dastgohlar maxsus fundamentga o'rnatilgan.

Bo'limda zaruriy elektrohavfsizlik qoidalari ko'zda tutilgan. Texnologik jarayonni mehanizatsiyalash va avtomatizatsiyalash.

Tehnologik jarayonni mehanizatsiyalash va avtomatizatsiyalash mehnat sharoitini yengillshtiradi. Mehnat sig'imi va yordamchi vaqt ham kamayadi. Shuning uchun zagotovka sexda va tashqaridan transportyor yordamida tashiladi. Osmo kran yordamida dastgohlar montaj va demontaj qilinadi. Chiqqan chiqindilar yer ostidan konveyer yordamida olib tashlanadi.

Qo'llanilgan moslamalar iloji boricha mehanizatsiyalashgan. Og'ir yuk va dastgohlarni ko'chirish uchun kranbalka qo'llaniladi.

Loyihada havfli va zararli omillar mavjud. Zararli omillar birinchi mexanik ishlar berishdagi, ya'ni kesib ishlashdagi ajraladigan chang, tovush, vibratsiyadir. Chang odamning organizmiga kirib nafas olish yo'llarini kasallantiradi va ko'z pardasini

ishdan chiqarishi mumkin. Vibratsiya, yani tebranish tufayli professional kasalliklar paydo bo'ladi. Chiqadigan tovush odamning miyasiga tasir etib uni charchatadi va malum kasalliklarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Xavfli omillar bu metalga ishlov bergan vaqtda strujka, asbob sinig'lari uchib odamga jarohat qilishi mumkin. Bundan tashqari xavfli omillarning biri elektr toki. Chunki xamma jihozlar elektr toki bilan ishlaydi.

Bo'limda o'tish va transportda o'tish yo'llari ham mavjud, ular meerga qaraganda, yo'llar-2000 mm, a o'tish joylari va dastgohdan 800-1200 mm teng bo'lishlari shart. Ularni soni texnologik jarayon katta –kichikligiga qarab olinadi. Odamni o'lchovi 800 mm olinadi. Odam va stanok orasidagi masofa 1500 mm qilib olinadi.

Ishlab chiqarish joyidagi yoritilish tizimini tanlash.

Sanoat tarmoqlariga yoritilganlik normalariga mos holatda korxona uchun yoritish tizimini tabiiy va suniy yoritilish olinadi.

Loyihalananayotgan bo'limda tabiiy va suniy yorug'lik ko'zda tutilgan.

Tabiiy yoritilish oynak va fonarlar orqali bajariladi, TEK meyor 0,1-10% olinadi. Suniy yoritilish esa gazorazryadli lampalar orqali amalgam oshiriladi. Bu lyuminesentli lampalardir. Normal ish sharoitini taminlash uchun CH va П11-4-79 dan foydalanib hisob kitob qilinadi.

Yoritilish oqimidan foydalanish ko'rsatgichiga asoslangan hisob kitob shuni ko'rsatdi, kerakli nur oqimi $F_1 = 5220$ lm bo'lishi kerak.

Bo'limda talab etilgan yorug'lik o'rtachasi 300 lkga teng. Lampalar sonini quyidagicha topamiz:

Gigienik talablarga asosan bitta ishlovchiga malum inshootni hajmi va maydoni belgilanadi. Shuning uchun har bir ishchiga KMK bo'yicha 20m^2 maydon va 80m^3 bino hajmi ajratilgan.

$E_n = 300$ lk –yoritilish bo'lishi kerak.

$S = 188.4 \text{ m}^2$ -yoritish maydoni

$K = 1,6$ -koeffitsienti

Bu yerda:

$$i = \frac{a \times b}{np(a+b)} = \frac{20 \times 16}{7,7(20+16)} = 1,1;$$

$a \times b$ -proletni eni va uzunligi. $N_{pr} = n \cdot h_c \cdot h_{pm} = 8,6 - 0,1 - 0,8 = 7,7m$ –bino balandligi;

Fl-nur oqimi; $n = 0,41$ = koefitsienti:

$$N = \frac{E_n \cdot S \cdot K \cdot i}{F_{ln}}; \quad N = \frac{300 \cdot 188.4 \cdot 1,6 \cdot 1,1}{5220 \cdot 0,41} = 46 \text{ lampa (46 yoritgich)}$$

Lyuminessentli yoritgichlar shaxmat tartibida joylashgan bo'ladi.

Avariya holatini oldini olish uchun elektr yo'llariga holdagi yoritilish ko'zda tutilishi kerak.

ChiΠ11-4-79 bo'yicha loyihalalanayotgan inshootni tabiiy yoritilganligi, yoritish tizimi va tabiiy yoritilganlik koefitsientini tanlash.

Bo'limni tabiiy yorug'lik uchun binoning malum joylarida yoritish proemlari mavjud. Yoritilganlik tabiiy yoritilganlik koefitsienti bilan tariflanadi. Bu <C> koefitsientini ChiΠ11-4-71 bo'yicha 0,9 deb qabul qilamiz.

Bo'limda yorug'lik o'tkazadigan qabul madonini quyidagicha topamiz.

$$S\Phi \frac{S_n \cdot L_n \cdot K_3 \cdot \Pi_0}{T_0 \cdot V_k \cdot K_\phi \cdot 100};$$

Bu yerda:

S_n -bo'lim polini maydoni; m^2

L_n -meyorlangan qiymat; KLO

K_3 -zapas koefitsienti.

Π_0 -oynaklar yorug'lik tasnifi.

T_0 -yorug'lik o'tkazuvchanlik koefitsienti.

$$T_0 = T_1 \cdot T_2 \cdot T_3 \cdot T_4 \cdot T_5 = 1,0 \cdot 1,0 \cdot 1,0 \cdot 1,0 \cdot 0,9 = 0,9$$

$$S\Phi = \frac{188.4 \cdot 9,0 \cdot 1,5 \cdot 0,85}{0,9 \cdot 0,75 \cdot 0,8 \cdot 100} = 40 \text{ m}^2.$$

Ventilyatsiya tizimini tanlash.

Sanoat korxonalarini loyihalashtirishdagi talab etilgan sanitar qoidalariga mos keladigan ishlab chiqarish binolari uchun muvofiq iqlimiy sharoitlarni asoslab berish.

Ishlab chiqarish korxonalarida xavoning xarorati boshqarilmasa $t = 18-25\%$ dan, $t = 30-33\%$ gacha ko'tarilib ketishi mumkin. Shuning uchun GOST 12.1-006-88 bo'yicha va CH 247-81 ga asoslanib optimal iqlimiy sharoitlar belgilanadi.

Qishda $t = 17-19^\circ = 40-60\%$

Yozda $t = 20 - 22^{\circ} = 40\ 60\%$

Ishlab chiqarish binolari uchun umumiy xavo almashinuvini quyidagicha topamiz.

$$L_{tp} = L_{vit} = \frac{Q_{izb}}{C(t_{vim} - t_{pr}) \cdot r}; \text{ m}^3/\text{soat.}$$

$$Q_{izb} = Q_{ob} + Q_p + Q_m = 300000 + 200000 + 180000 = 680000$$

L_{tr} va L_{vit} –kelayotgan va chiqib ketayotgan havo qiymati.

t_{it} va t_{vim} - kelayotgan va chiqib ketayotgan havo xarorati.

$$L_{tr} \text{ va } L_{vit} = \frac{680000}{0,24(30 - 22)1,73} = 23396 \text{ m}^3/\text{soat.}$$


7.4. Elektr xavfsizligi.

Ximoyaviy yerga ulashni qo'llash zaruratini asoslab berish.

Ishlab chiqarish korxonalarida elektr toki keng qo'llaniladi.

Shuning uchun elektr xavfsizligiga katta etibor berish kerak. Elektr zanjiri odam O'qsi orqali ulanib qolsa yoki odam zanjirning ikki nuqtasiga tegib ketsa odamni tok uradi. Elektr xavfsizlik tadbirlaridan bir nechtasidan aytib o'tish mumkin, bulardan ximoyaviy yerga ulash ximoyasi, nolga ulash ximoyalarini qo'llash, qo'shimcha izolyatsiyani ishlatish, ximoya to'siqlarini qo'llash.

7.1. va 7.2. rasmda yerga ulash va nolga ulash ximoyasi keltirilgan.



7.1 Rasm. Yerga ulash ximoyasini 7.2. Rasm. Nolga ulash ximoyasini sxemasi sxemasi

7.5. Yong'in xavfsizligi.

7.5.1. Yong'in xavfsizligi imorat sexning o'tga chidamliligiga qarab sanoat kategoriyasini aniqlash.

CH и П 11-2-81 ga asosan loyihalanayotgan inshoot yong'in, portlash, yonib portlash, xavfliligi bo'yicha <D> kategoriyaga kiradi.


Qurilish materiallari yonmaydigan yong'inga chidash bo'yicha inshoot 1-darajalidir.

Birinchi o't o'chirish vositalariga bo'lgan ehtiyoj. Loyihalangan bo'limda yong'in o'chish shit va birlamchi o't o'chirish vositalari mavjud. Bunda 2 dona ognetushitel – OXП-10, va ОУ-5, 1 dona suvli idish , 1 ta –qumli idish, 2 ta paqir, 2 ta –lom, 1 ta-bolta, 2 ta- bagor.

O'tga qarshi suv taminoti. Loyihalanayotgan sex bo'limda suvni yig'ish , tashish , saqlash va foydalanish muhandislik qurilmasi mavjud. Bo'lim yong'in gidranti, suv hovuzchasi shlanglar bilan taminlangan.

Aloqa, yong'in signalizatsiya.

Yong'in xavfsizligi asosiy shartlarini taminlash uchun avtomatik vositalar qo'llaniladi. Bo'limda ПООТ-1 xabar beruvchi qurilma qo'llanilgan. 20 m² maydoni nazorat qila olib, 70⁰ C ishga boshlaydi va 0,7 sekundda xabar beradi. Bundan tashqari DV-1 xabarlatgich sxemasi qo'llanilgan.



7.3. Rasm DV-1 xabarlatgichning sxemasi.

1-xabarlatgichlar; 2-qabul qiluvchi uskuna; 3-yong'in pulti.

8.XORIJIY INVESTITSİYALAR BO'LIMI.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvar kuni bo'lib o'tgan ko'shma majlisidagi "Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish-ustuvor maqsadimiz", hamda O'zbekiston respublikasi prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi maruzasida tasdiqlab olishdan iborat. 18.01.2013 yil.

O'tgan yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, avvalambor shuni ta'kidlashimiz kerakki, global jahon iqtisodiyotida hali-beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, 2012-yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozoridagi o'z pozitsiyasini mustahkamladi.

Bu davrda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9 foizga oshdi.

Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning mutanosibligi ta'minlandi.

Eksport hajmi sezilarli ravishda, ya'ni 11,6 foizga o'sdi, eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibi va sifati yaxshilanib bormoqda. Buning natijasida xomashyo bo'lmagan tayyor tovarlarning ulushi 70 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Tashqi savdo aylanmasidagi ijobiy saldo 1 milliard 120 million dollardan oshdi.

Inflyasiya darajasining o'sish sur'ati prognoz ko'rsatkichlari doirasida saqlab qolindi va 7 foizdan oshmadi.

2012-yilda soliq yukini kamaytirish siyosati davom ettirildi. Kichik korxona va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 6 foizdan 5 foizga tushirilgani, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan soliq stavkasi esa sezilarli tarzda, ya'ni o'rtacha ikki barobar kamaytirilgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

SHularga qaramasdan, davlat byudjetining daromadlar qismi bo'yicha ko'rsatkichlari to'liq bajarildi, erishilgan profitsit yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,4 foizni tashkil etdi.

Davlat jami xarajatlarining asosiy qismi, ya'ni qariyb 59,2 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratildi, uning 34 foizdan ortig'i ta'lim, 14,5 foizdan ko'prog'i sog'liqni saqlash sohalarini moliyalashtirishga yo'naltirildi.

Bugungi kunda, dunyoning ko'plab mamlakatlarida davlat qarzining ortib borishi bilan bog'liq muammolar saqlanib qolayotgan bir sharoitda, O'zbekistonimiz chetdan qarz olish bo'yicha puxta o'ylangan siyosat olib borishi natijasida davlatimiz qarz hajmining ulushini nisbatan past darajada ushlab qolishga va o'z majburiyatlariga to'liq javob beradigan mamlakat sifatida barqaror obro'-e'tiborini saqlab qolishga erishdi. 2013-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonning jami tashqi qarzlar miqdori yalpi ichki mahsulotga nisbatan 16,0 foizdan oshmagani, bu ko'rsatkich esa xalqaro mezonlar bo'yicha "o'rtachadan ham kam" darajada baholangani buni isbotlab bermoqda.

Mamlakatimiz moliya-bank tizimi barqaror va ishonchli faoliyat yuritib, yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etib kelmoqda. 2012-yilda bank tizimining jami kapitali 24,3 foizga, so'nggi uch yilda esa ikki barobar ko'paydi.

Bugungi kunda kapitalning etarlilik darajasi 24,0 foizdan oshib, bu esa qabul qilingan umumiy xalqaro standartlardan 3 barobar ortiqdir. 2012-yil yakunlari bo'yicha bank tizimining likvidligi 65,0 foizdan ortmoqda, bu esa talab etiladigan minimal darajadan 2 barobar yuqoridir.

2010-yilda mamlakatimizning atigi 13 ta tijorat banki ijobiy xalqaro reytingga ega bo'lgan bo'lsa, ayni paytda ularning soni 28 taga etdi.

Banklar faoliyatida, o'tgan yillardagi kabi, investitsiya faoliyatiga katta e'tibor qaratildi.

2012-yilda iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2011-yilga nisbatan 1,3 barobar oshdi. Ajratilgan kreditlarning 76 foizdan ziyodi uch yildan ortiq muddatga berilgan uzoq muddatli kreditlar ekani, ayniqsa, e'tiborga molik.

2012-yilda mamlakatimizning yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sishini ta'kidlar ekanmiz, buning boisi va omilini avvalambor iqtisodiyotimizga yo'naltirilgan kapital mablag'lar, investitsiyalar tobora o'sib borayotganida, bu ko'rsatkich yalpi ichki mahsulotga nisbatan 22,9 foizni tashkil etganida, deb hisoblashimiz zarur.

O'tgan yilda iqtisodiyotimizga 11 milliard 700 million dollar miqdorida ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etildi yoki bu boradagi ko'rsatkich 2011-yilga nisbatan 14 foizga o'sdi. Jami investitsiyalarning 22 foizdan yoki 2 milliard 500 million dollardan ortig'ini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ularning 79 foizdan ko'prog'i to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.

E'tiborga sazovor tomoni shuki, jami investitsiyalarning qariyb 74 foizi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirildi.

SHu borada faqat o'tgan yilning o'zida umumiy qiymati 1 milliard 600 million dollardan ortiq bo'lgan kapital qo'yilmalar o'zlashtirilib, 205 ta yirik investitsiya ob'ekti qurib bitkazildi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, sanoat tarkibini o'zgartirishga asosiy e'tibor qaratildi.

2012-yilda qurilishi nihoyasiga etkazilgan eng yirik ob'ektlar haqida gapirganda, Navoiy issiqlik elektr stansiyasida YAponiyaning "Mitsubisi" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan 478 megavolt quvvatga ega bo'lgan bug'-gaz qurilmasining ishga tushirilganini alohida qayd etish lozim.

Ushbu loyihaning amalga oshirilishi yiliga qo'shimcha ravishda 2 milliard 800 million kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi. SHuningdek, bu loyiha hisobidan shartli yoqilg'i iste'molini 1,8-marta kamaytirishga, har yili 400 million kub metr gazni tejash yoki 110 million dollardan ortiq mablag'ni iqtisod qilishga erishamiz.

Avtomobil sanoatida Germaniyaning dunyoga mashhur "MAN" kompaniyasi bilan hamkorlikda Samarqand viloyatida yiliga 3 mingta yuk avtomobili ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan yangi kompleksni bunyod etishning ikkinchi bosqichi yakunlandi.

Ushbu korxonada jahondagi eng yuksak standartlar asosida jihozlangan yuqori texnologik ishlab chiqarish tashkil etildi. Aytish kerakki, katta hajmdagi yuklarni

tashiydigan eng zamonaviy avtomobillar ishlab chiqaradigan mazkur korxona nafaqat mamlakatimiz ehtiyojini qoplaydi, balki bu mashinalarni eksport qilishni ham ta'minlaydi.

Muborak gazni qayta ishlash zavodida 258 ming tonna suyultirilgan gaz va 125 ming tonna kondensat ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan zavodning birinchi navbati foydalanishga topshirildi, "SHo'rtanneftgaz" korxonasida esa propan-butan qorishmasi asosida 50 ming tonna suyultirilgan gaz ishlab chiqaradigan qurilma o'rnatildi.

Yana bir yirik loyiha – umumiy qiymati 250 million dollardan ortiq bo'lgan Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodining ikkinchi navbatini qurish ishlari davom ettirilmoqda. Bu boradagi ishlar yakuniga etgach, korxonada yiliga 600 ming tonnagacha kaliyli o'g'it ishlab chiqarish imkoni paydo bo'ladi va bu mahsulotning 350 ming tonnadan ko'prog'i eksport qilinadi.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, 2012-yilda Surg'il koni bazasida hatto dunyo mezonlari bo'yicha ham noyob bo'lgan, qiymati 25 milliard dollardan ziyodni tashkil etadigan Ustyurt gaz-kimyó kompleksi qurilishi boshlandi. Mazkur ob'ektning qurilishi 2016-yilda nihoyasiga etkaziladi va bu korxona 4 milliard 500 million kub metr tabiiy gazni qayta ishlash, 400 ming tonna polietilen va 100 ming tonna polipropilen ishlab chiqarish imkonini beradi.

Ushbu loyiha texnologik jihatdan dunyodagi eng ilg'or loyihalardan biri bo'lib, eng yuksak darajadagi gaz-kimyó texnologiyalarini joriy etishni ko'zda tutadi. Bu, o'z navbatida, tabiiy gazdan 97 foizgacha etan, propan va boshqa qimmatbaho komponentlarni ajratib olishni ta'minlaydi.

2012-yilda Janubiy Afrikaning "Sosol" kompaniyasi va Malayziyaning "Petronas" korporatsiyasi bilan hamkorlikda qiymati 4 milliard dollardan ziyodni tashkil etadigan, tozalangan metan asosida sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarish bo'yicha katta istiqbolga ega bo'lgan yirik loyihani amalga oshirish boshlandi.

Ushbu loyiha asosida barpo etiladigan zavod dunyodagi sanoqli korxonalardan biri bo'lib, u sintetik suyuq yoqilg'i – suyultirilgan gaz, aviakerosin va "premium klass" toifasidagi, ya'ni evro-4 standartidan kam bo'lmagan dizel yoqilg'isi ishlab chiqaradi.

SHu o'ringda avtomobil, temir yo'l va kommunikatsiya sohalaridagi qurilish ishlariga qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

O'tgan davrda qariyb 500 kilometrlik to'rt polosali zamonaviy avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari yakunlandi. SHundan 163 kilometri sement-beton va 335 kilometri esa asfalt-beton bilan qoplangan yo'llardir.

Uzunligi 116 kilometr bo'lgan Guliston-Ohangaron avtomobil yo'li, Qo'qon shahrini aylanib o'tadigan avtoyo'l foydalanishga topshirildi, Samarqandning Toshkent, Qarshi va Olot shaharlari bilan bog'laydigan yo'llar rekonstruksiya qilindi.

Temir yo'l transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish ishlari, temir yo'l tarmoqlarini elektrlashtirish loyihalari izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu ishlar poezdlardan foydalanish xarajatlarini 20 foizga kamaytirish, yo'lovchi va yuk tashish tezligini 1,3 barobar oshirish, 830 kilometrlik Toshkent-Termiz temir yo'lini to'liq elektrlashtirish imkonini beradi.

2012-yilda uzunligi 240 kilometr bo'lgan temir yo'lni qayta tiklash ishlari davom ettirildi. Uzunligi 70 kilometrdan ortiq bo'lgan Dashtobod-Jizzax temir yo'l tarmog'i bo'ylab yuk va yo'lovchi poezdlar harakati yo'lga qo'yildi.

O'tgan yili telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha ham katta ishlar bajarildi. Bu borada ko'zda tutilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida uzunligi 180 kilometrdan ziyod bo'lgan Boysun-Denov, Urgut-SHahrisabz optik tolali aloqa liniyasi ishga tushirildi.

Farg'ona, Navoiy, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlarida teleuzatish moslamalarini o'rnatish orqali bosqichma-bosqich raqamli televideniyaga o'tish amalga oshirildi. Bu aholini mamlakatimiz bo'yicha raqamli televidenie bilan qamrab olish darajasini 42 foizga etkazish imkonini berdi.

YAngitdan tashkil etilgan "Navoiy" va "Angren" erkin industrial-iqtisodiy zonalari bugungi kunda mamlakatimizning ishlab chiqarish salohiyatini modernizatsiya qilishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda alohida o'rin egallamoqda.

"Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi tashkil etilganidan buyon bu erda 12 ta korxona qurilib, foydalanishga topshirildi. 2012-yilda ular tomonidan qariyb 80 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Akkumulyator simlari, avtomobil gaz

ballonlari, mobil va statsionar telefonlar, modemlar va internet uchun qo‘shimcha moslamalar ishlab chiqarish bo‘yicha korxonalar tashkil etish kabi yuqori texnologiyalar asosidagi yana ettita loyiha amalga oshirish bosqichida turibdi.

SHu borada to‘plangan tajribani va Toshkent viloyatidagi ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan foydalanish, Farg‘ona vodiysidagi korxonalar bilan barqaror iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yishning kelajakda muhim ahamiyatga ega ekanini hisobga olgan holda, “Angren” maxsus industrial zonasini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan edi.

Mazkur industrial zonada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarga, kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab, 3-yildan 7-yilgacha bo‘lgan muddatga keng ko‘lamli soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalar berildi, ularning infratuzilma ob’ektlari va kommunikatsiyalarga kafolatli ravishda ulanishi ta’minlanmoqda.

Hozirgi kunda “Angren” maxsus industrial zonasi hududida qiymati 186,0 million dollarlik 8 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. SHular qatorida zarurat va ehtiyoj baland bo‘lgan turli tayyor mahsulotlarni va butlovchi buyumlarni ishlab chiqarish, shuningdek, yangi shakar zavodini qurish, tayyor charm buyumlar ishlab chiqaradigan kompleksni barpo etish alohida o‘rin tutadi.

9. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

Барановский Ю.В. Режимы резание металлов. Справочник. М.: Машиностроение, 1972-407с.

Горбатевич А.Ф, Шкред В.А. Курсовое проектирование по технологии машиностроение. М.: Высшая школа, 1983-256с.

Горошкин А.К. Припособлениуа длуа металлорежущих станков. Справочник – М.: Машиностроение 1979-303с.

Далский А.М. Технологиуа машиностроениуа. Т-1, Основы технологии машиностроение. М.: МГТУ им Н.Э.Баумана, 2001-563с.

И.М.Белкин. Справочник по допускам и посадкам длуа рабочего машинастроителуа–М.:Машинастроение,1985-320с.

Касилова А.Г, Мешеруаков Р.К. Справочник технолога машинастроителуа. Т-2, М.: Машиностроение, 1985-496с.

Касилова А.Г, Мешеруаков Р.К. Справочник технолога машинастроителуа. Т-1, М.: Машиностроение, 1985-656с.

Малахов Г.А. Обработка металлов резанем. Справочник технолога. М.: Машиностроение,1974-598с.

Малов А.Н. Справочник технолога машиностроителуа. Т-2,М.: Машинастроение,1972-568с.

Mashinasozlik texnologiyasi fani bo'yicha kurs loyihasini bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar. Farg'ona 2007 y.

Мельников ГюН. Технологиуа машиностроение. Т-2, Производство машин. М.: МГТУ им Н.Э.Баумана, 2001-639с.

Mirzaev A.A, Sotvoldiev A.E. Mashinasozlik texnologiyasi asoslari. O'quv qo'llanma. Farg'ona-Texnika, 2002-156 b.

Нефёдов Н.А, Осипов К.А. Сборник задач и приьеров по резанию металлов и режущему инструменту–М.: Машинастроение, 1990–448с.

10.SPESIFIKATSIYA

For.	Zona	Poz.	Belgilanishi	Nomi	Soni	Izoh	
		1		Orqangi qopqoq	1		
		2		Xavo xaydovchi kanallar	2		
		3		Tana	2		
		4		Manjet	4		
		5		Vtulka	1		
		6		Asos vali	1		
		7		Detal	1		
		8		Richag	1		
		9		Qopqoq birikmasi	1		
				Standartlar			
		10		Podshipnik	1		
		11		Vint M12 GOST 1491-73	6		
Bitiruv malakaviy ishi				“Evra Aziya TAPO-Disk” QK AJ buyurtmasiga ko’ra №200.13.036 raqamli “Uch mushtchali patron” ning 15- sonli detalini “O’q” detalini tayorlash ilg’or texnologiyasini ishlab chiqish			
Lavozim	Familya	Imzo	Sana				
Bajardi	Hakimov X			Pnevmatik moslama	Ada	List	Listlar
Raxbar	Sotvoldiyev A				U	B	
					Far PI Mex.fak		
Tasdiqladi	Fayzimatov Sh.				16-09-guruh		

**11.ILOVA(2 TA O'TISH UCHUN KESISH MAROMINI KOMPYUTER
DASTURI YORDAMIDA XISOBI)**

12.INTERNETDAN OLINGAN MALUMOTLAR